

2020- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamон iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyatini integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

- Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорлиги va samaradorligini oshirishga yordam berадиган turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.
- Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2020- yil 1-iyul holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni - 16 086 birlikda

Ularning umumiy sonidagi ulushi - 63,9 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari - 115,7 %




**2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, xiz-matlar sohasida fao-liyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilot-larning ulushi - 63,9 %, sanoat - 15,2 %, qurilish - 10,3 % ga yetdi va atigi 10,6 % i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

**2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (39,8 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 12,2 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 9,0 % ga yetdi. Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2019- yil 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 13 897 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari – 36,5 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 11,3 %, tashish va saqlash - 9,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,9 %, axborot va aloqa - 1,5 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 37,5 % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2185 taga ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- iyul holatiga ko'ra ularning soni 3629 taga ko'paydi.



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi, % da

(fermerva dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasida yuqori o'sish – 26,4 % ekanligi kuzatildi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1336 taga ko'paydi va 6406 taga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 25,4 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 398 taga ko'paydi va 1963 tani tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

**2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yil 1- iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 79,6 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- iyul holatiga ko'ra, ularning ulushi 76,2 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 212 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 12 806 tani tashkil etdi va o'sishi esa 20,9 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 58,8 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 58,4 % ekvivalentida qayd etildi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta ahamiyatga egadir.

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish hamda, unga qarshi kurashish maqsadida insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rildi. Bu esa deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishiga olib keldi va o'z navbatida xizmatlar sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 314,6 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi bor yo'g'i 544,1 mlrd. so'mga oshdi. Taqposlama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,6 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati
103,6 %

Hajmi 544,1
mlrd. so'mga
oshdi

Xizmatlar hajmi
4 314,6
mlrd. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlar


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yil yanvar-iyun oylarida)**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	4 314 619,1	103,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	195 478,1	106,0
Moliyaviy xizmatlar	754 143,2	151,8
Transport xizmatlari	962 516,6	97,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	900 257,9	97,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	178 963,1	78,8
Savdo xizmatlari	1 400 046,9	100,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	107 324,0	87,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	209 494,7	97,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	67 720,8	83,8
Ijara xizmatlari	105 848,3	93,1
Kompyuter va maishiyl tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	80 252,2	91,0
Shaxsiy xizmatlar	81 593,5	88,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	47 171,8	71,9
Boshqa xizmatlar	124 065,9	99,1

Dastlabki ma'lumotlar


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining tarkibi, % da
(2020- yil yanvar-iyun oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi 32,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,3 %), moliyaviy xizmatlar (17,5 %), ta'llim sohasidagi xizmatlar bo'yicha (4,9 %) qayd etildi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha past ulush qayd etildi - 1,6 %, kompyuter ta'mirlash xizmatlari - 1,9 %, shuningdek shaxsiy xizmatlarning ulushi 1,9 % dan qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,
2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da
(2020- yil yanvar-iyun oylarida)**



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (51,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (6,0 %) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (28,1 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (21,2 % ga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (16,2 % ga), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (12,5 % ga) da pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinni tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020- yil yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi 32,4 % ni tashkil etib, bu 1 400,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiyligi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 77,9 % iga to'g'ri keladi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yil yanvar-iyun oylarida)



Dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 16,4 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yil yanvar-iyun oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi
754,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.**



**Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi
17,5 % ni tashkil etdi.**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan

**266,1 mlrd. so'mga hajmning ko'payishi
kuzatildi.**



Ularning o'sishi 51,8 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlardan miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy
xizmatlar tarkibi,
% da
(2020- yil yanvar-
iyun oylarida)**

92,0 %

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

5,6 %

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

2,4 %

Yordamchi moliyaviy xizmatlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,0 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,6 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,4 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
(2020- yil yanvar-iyun oylarida)**




2020- yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 195,5 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 106,0 % ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yil yanvar-iyun oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida noshirlilik xizmatlari - 1,7 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,0 %, boshqa aloqa xizmatlari - 1,0 % va axborot sohasidagi xizmatlar - 0,3 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.



Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-iyun oylarida)



2020- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 209,5 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,7 % ni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yil yanvar-iyun oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 78,8 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 179,0 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 4,1 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yil yanvar-iyun oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 85,3 % bilan ustunlik qiladi.


2020- yil yanvar-iyun oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 14,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-iyun oylarida)

2020- yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 67,7 mld. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiylajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,8 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarining daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da

(2020- yil yanvar-iyun oylarida)



Xizmatlarning umumiylajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatlari bo'lib, 62,5 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa shahar va tumanlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Shuningdek, eng katta ulush G'ijduvon (9,1 %), Buxoro (3,7 %), Vobkent (3,2 %) va Romitan (2,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'satkichlari Qorovulbozor (1,6 %), Kogon (1,9 %), Olot (2,1 %), Jondor (2,4 %) va Shofirkon (2,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2019- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida Buxoro shahrining ulushi 61,4 % ni tashkil etgan. Qorovulbozor tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 1,8 % kuzatilgan

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yil yanvar-iyun oylarida)

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Buxoro viloyati *	4 314 619,1	103,6	2 237,6
Olot	91 625,5	100,2	923,6
Buxoro	159 132,6	102,0	954,6
Vobkent	139 117,1	100,1	995,1
G'ijduvon	393 374,2	101,7	1 294,0
Jondor	1 02 293,1	102,9	586,5
Kogon	82 992,1	101,0	1 059,9
Qorako'l	116 987,5	102,1	713,8
Qorovulbozor	68 231,8	88,9	3 728,5
Peshko'	115 823,1	101,1	943,2
Romitan	126 072,2	101,6	889,7
Shofirkon	107 615,4	103,0	607,0
<i>shaharlari</i>			
Buxoro sh.	2 693 204,1	105,3	9 598,0
Kogon sh.	118 150,4	100,1	1 930,6

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 237,6 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 2 237,6 ming so'm

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan



Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobjiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

65-223-79-41